


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 76 326 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (7 241 kishi), Qarshi shahrida (7 001 kishi), Koson (6 179 kishi), Dexqonobod (5 595 kishi), Qamashi (5 364 kishi), G'uzor (5 343 kishi), Kitob (4 855 kishi), Chiroqchi (4 853 kishi) , Kasbi (4 631 kishi), Shahrisabz (4 535 kishi), Yakkabog' (4 178 kishi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilgan fuqarolardan 39 917 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Koson tumanida (3 676 kishi), Qarshi shahrida (3 629 kishi), Kitob (3 091 kishi), G'uzor (2 940 kishi), Chiroqchi (2 782 kishi), Shahrisabz (2 618 kishi), Qarshi (2 605 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ro'yxatga olingan fuqarolardan 1 579 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni
(2025- yil 1- yanvar holatiga, kishi)**

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>
Viloyat bo‘yicha:	67 344	76 326	3 587	1 579	637	219
shaharlar:						
Qarshi	5 733	7 001	120	44	22	2
Shahrisabz	3 118	3 211	299	125	11	7
tumanlar:						
G‘uzor	5 560	5 343	315	236	98	15
Dehqonobod	3 925	5 595	179	46	14	1
Qamashi	4 810	5 364	115	54	5	7
Qarshi	4 324	7 241	120	60	26	13
Koson	4 529	6 179	474	99	74	36
Kitob	3 783	4 855	101	153	5	3
Mirishkor	2 505	3 042	455	109	170	11
Muborak	2 501	2 766	53	39	3	2
Nishon	4 009	3 844	265	33	44	6
Kasbi	4 752	4 631	146	153	33	71
Ko‘kdala	3 276	3 688	137	47	24	1
Chiroqchi	6 117	4 853	177	67	28	15
Shahrisabz	4 137	4 535	404	202	30	20
Yakkabog‘	4 265	4 178	227	112	50	9



Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qarshi shahri, Koson, Dehqonobod, Qamashi, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>
Viloyat bo'yicha:	33 257	39 917
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2 902	3 629
Shahrisabz	1 409	1 767
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3 649	2 940
Dehqonobod	1 535	2 083
Qamashi	2 530	2 579
Qarshi	1 946	2 605
Koson	2 777	3 676
Kitob	2 162	3 091
Mirishkor	1 118	1 594
Muborak	1 420	1 609
Nishon	1 424	1 767
Kasbi	2 530	2 511
Ko'kdala	1 549	2 088
Chiroqchi	2 049	2 782
Shahrisabz	2 288	2 618
Yakkabog'	1 969	2 578

¹⁾ *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 785,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 5 271,8 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 139,3 %), Nishon tumanida 4 817,8 ming so‘m (127,3 %) , Muborak tumanida 4 677,6 ming so‘m (123,6 %) va G‘uzor tumanida 4 089,6 ming so‘m (108,0 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalarida hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	238 334	10 727,0	3 785,7
shu jumladan:			
Sanoat	26 954	1 963,5	6 070,5
Qurilish	4 847	250,9	4 314,2
Savdo	1 437	72,7	4 214,2
Tashish va saqlash	6 022	487,0	6 738,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	131	4,0	2 561,9
Axborot va aloqa	831	85,8	8 605,4
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 834	273,7	12 435,4
Ta‘lim	113 762	4 130,0	3 025,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	50 735	1 636,1	2 687,4
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 250	125,5	4 648,2
Boshqa faoliyat turlari	29 531	1 697,8	4 790,9

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 785,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 12 435,4 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,3 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 8 605,4 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 738,9 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 78,0 % ga yuqori), Sanoat sohasida 6 070,5 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 60,4 % ga yuqori), hamda San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 4 648,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 22,8 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 374,2	3 785,7	112,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	4 670,0	5 271,8	112,9
Shahrisabz sh.	2 909,4	3 567,0	122,6
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 688,2	4 089,6	110,9
Dehqonobod	3 213,8	3 646,8	113,5
Qamashi	2 405,5	2 682,6	111,5
Qarshi	2 602,3	2 942,1	113,1
Koson	2 661,4	2 995,8	112,6
Kitob	2 640,9	2 936,4	111,2
Mirishkor	2 709,0	2 870,9	106,0
Muborak	4 184,2	4 677,6	111,8
Nishon	4 411,4	4 817,8	109,2
Kasbi	2 644,5	2 994,1	113,2
Ko'kdala	2 474,9	2 919,7	118,0
Chiroqchi	2 752,1	2 870,8	104,3
Shahrisabz	2 623,6	2 892,2	110,2
Yakkabog'	2 520,9	2 723,9	108,1


Ish haqi. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 461 ta muassasada 113 762 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4 130,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 025,3 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 46 ta korxonada 26 954 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,3 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 963,5 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,3 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 070,5 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 12 486,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,1 barobarga yuqori), Muborak tumanida 8 086,1 ming so‘mni (33,2 % ga yuqori), G‘uzor tumanida 7 653,5 ming so‘mni (26,1 % ga yuqori), Dehqonobod tumanida 7 517,4 ming so‘mni (23,8 % ga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Ko‘kdala tumanida 3 341,6 ming so‘mni (55,0 %), Qarshi tumanida 2 881,6 ming so‘mni (47,5 %), Kasbi tumanida 2 977,0 ming so‘mni (49,0 %) hamda Kitob tumanida 2 725,4 ming so‘mni (44,9 %)ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 77 ta muassasada 50 735 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,3 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1636,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,3 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 687,4 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga o'sgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 121,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 116,1 %)ni tashkil etgan bo'lsa, Dehqonobod tumanida 2 143,1 ming so'mni (79,7 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 59 ta muassasada 2 250 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 125,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 648,2 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sgan.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 6 206,7 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,5 %), Qarshi shahrida 5 737,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 123,4 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



Sanoat
6 070,5



**Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik**
12 435,4



Qurilish
4 314,2



Ta'lim
3 025,3



Savdo
4 214,2



**Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**
2 687,4



Tashish va saqlash
6 738,9



**San'at, ko'ngil ochish
va dam olish**
4 648,2



Axborot va aloqa
8 605,4



**Boshqa iqtisodiy
faoliyat turlari**
4 790,9